



**ZAMONAVIY O‘ZBEK TILIDA AGNONIMLARNING PRAGMATIK-
PRESUPPOZITSIYAVIY VA LINGVOEKOLOGIK TALQINI**

<https://doi.org/10.70728/qdpi.v08.i01.068>

Munisjonova Madinaxon Yoqubjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti lingvistika yo‘nalishi 1-kurs magistranti

bonuyusupova936@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida uchraydigan agnonimlarning pragmatik va lingvoekologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda agnonimlarning presuppozitsiya orqali yuzaga chiqaradigan yashirin axboroti, ularning nutq jarayonidagi kommunikativ vazifalari hamda matn mazmunini boyitishdagi o‘rni yoritiladi. Badiiy matn misollarida agnonimlar orqali qahramon nutqini individuallashtirish, komik effekt yaratish va ijtimoiy-lisoniy tafovutlarni aks ettirish imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, agnonimlarning lingvoekologik jihatdan nutq muhitiga ta’siri, til egalarida tushunmovchilik yoki ma’no buzilishiga olib kelish ehtimoli muhokama qilinadi. Maqola pragmalingvistika va lingvoekologiya kesishgan nuqtada olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: agnonimlar, presuppozitsiya, pragmatik talqin, badiiy matn, nutqni individuallashtirish, komik effekt, lingvoekologiya, yashirin ma’no, kontekstual anglash, til foydalanuvchisi.

Аннотация. Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida uchraydigan agnonimlarning pragmatik va lingvoekologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda agnonimlarning presuppozitsiya orqali yuzaga chiqaradigan yashirin axboroti, ularning nutq jarayonidagi kommunikativ vazifalari hamda matn mazmunini boyitishdagi o‘rni yoritiladi. Badiiy matn misollarida agnonimlar orqali qahramon nutqini individuallashtirish, komik effekt yaratish va ijtimoiy-lisoniy tafovutlarni aks ettirish imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, agnonimlarning lingvoekologik jihatdan nutq muhitiga ta’siri, til egalarida tushunmovchilik yoki ma’no buzilishiga olib kelish ehtimoli muhokama qilinadi. Maqola pragmalingvistika va lingvoekologiya kesishgan nuqtada olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanadi.

Ключевые слова: агнонимы, пресуппозиция, прагматическая интерпретация, художественный текст, индивидуализация речи, комический эффект, лингвоэкология, скрытый смысл, контекстуальное понимание, языковая личность.

Annotation. This article examines the pragmatic and linguo-ecological features of agnonyms used in modern Uzbek literary texts. The study focuses on the presuppositional nature of agnonyms and their role in conveying implicit information within communication. Through literary examples, the research reveals how agnonyms function as tools for speech individualization, creation of comic effects, and representation of social and cognitive differences among characters. Special attention is paid to the linguo-ecological impact of agnonyms, particularly their potential to cause misunderstanding or semantic imbalance in the communicative environment. The findings demonstrate that agnonyms are not merely lexical phenomena but pragmatically and ecologically significant units that influence text interpretation. The article contributes to the intersection of pragmalinguistics and linguistic ecology.

Key words: agnonyms, presupposition, pragmatic interpretation, literary text, speech individualization, comic effect, linguoecology, implicit meaning, contextual inference, language user

KIRISH. Agnonim (yunoncha *α* – «emas», *gnosis* – «bilim», *onoma/onyma* – «nom») tushunchasi ona tilining leksik va frazeologik birliklari orasida mavjud bo‘lib, ko‘pchilik til egalari uchun semantik jihatdan noma‘lum, noaniq yoki tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarni anglatadi. Bunday birliklar til tizimida mavjud bo‘lsa-da, ularning mazmuni til egasining kundalik bilim doirasi va lisoniy tajribasidan tashqarida qoladi hamda ko‘pincha maxsus izohni talab qiladi. Masalan, ayrim kasb-hunar, tarixiy-maishiy yoki tor doiradagi realiyalar bilan bog‘liq bo‘lgan babok (qayin qo‘ziqorini turi), obvalka (go‘shni suyakdan ajratish jarayoni), obelny (soliqdan qisman yoki to‘liq ozod etilgan), obechayka (musiqqa asbobining yon qismi) kabi birliklar ko‘plab so‘zlovchilar uchun agnonimlik xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin.[1]

Agnonimlarni o‘rganishning muhim nazariy asosi shundan iboratki, ular leksik tizimning antroposentrik birliklari sifatida namoyon bo‘ladi. Ya‘ni, agnonimlar til va nutqdagi so‘zlarning obyektiv munosabatlarini emas, balki so‘zlovchining individual leksikoni bilan bo‘lgan aloqasini, so‘zning uning ongida qanday mavjud ekanini aks ettiradi. Bu jihati bilan agnonimlar lingvosentrik yondashuvga asoslangan leksik-semantik maydonlar, sinonimik qatorlar yoki noyob so‘zlar majmuasidan tubdan farq qiladi.

Agnonimlar mohiyatini yanada aniqroq ochib berish uchun ularni ularning eng yaqin lingvosentrik analogi bo‘lgan noyob so‘zlar bilan qiyoslash maqsadga muvofiqdir. Noyob so‘zlar tushunchasi, avvalo, so‘zning nutqda qo‘llanish chastotasi bilan belgilanadi va ularning til egalari tomonidan tushunilish darajasi bilan bevosita bog‘liq emas. Boshqacha aytganda, kam qo‘llaniladigan, biroq ko‘pchilik uchun tushunarli bo‘lgan so‘zlar mavjud.

Shu bilan birga, nutqda nisbatan faol qo‘llanilsa-da, semantik jihatdan ko‘pchilik til egalari uchun noaniq bo‘lgan birliklar ham uchraydi.

Agnonim tushunchasi esa so‘zning obyektiv chastotasini emas, balki uning tushunarlilik darajasini asosiy mezon sifatida belgilaydi. Ya’ni, agnonim sifatida baholanadigan birliklar ko‘plab ona tilida so‘zlashuvchilar uchun qo‘shimcha izoh va sharhni talab etadi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, so‘zning agnonimlik maqomi faqat statistik ko‘rsatkichlar bilan emas, balki til egasining lisoniy ongidagi real idrok holati bilan belgilanadi.

Shu sababli agnonimlarni aniqlash va tavsiflashda faqat korpus ma’lumotlari yoki qo‘llanish chastotasiga tayanish yetarli emas. Agnonim hodisasini to‘g‘ri anglash uchun til egasining lingvistik ongiga, uning bilim ko‘lami va tajribasiga murojaat qilish zarur. Aynan shu yondashuv agnonimlarni zamonaviy tilshunoslikning antroposentrik va kognitiv yo‘nalishlari doirasida o‘rganish muhimligini belgilab beradi.

Tilshunoslikda presuppozitsiya hodisasi biror ma’no bevosita ifodalanmay, jumla yoki so‘z tarkibida yashirin holda anglashilishini bildiradi. Boshqacha aytganda, presuppozitsiya — so‘z yoki gapning yuzaki mazmunidan tashqari, nutq ishtirokchisi tomonidan oldindan anglab olinishi ko‘zlangan yashirin axborotdir. Bu hodisa pragmalingvistik va semantik jihatdan nutqning asosiy tarkibiy elementi sifatida baholanadi.[2]

O‘zbek tilida presuppozitsiya, bir so‘z orqali murakkab va qo‘shimcha ma’nolarni etkazish imkonini beradi. So‘zlovchi nutqda ma’lum voqelikni ochiq ifoda etmasligi mumkin, ammo tinglovchi oldindan bilish va kontekst asosida yashirin ma’noni tushunadi. Shu tariqa presuppozitsiya muloqot samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Zamonaviy o‘zbek tilida so‘z boyligi va leksik birliklarning o‘zgarishi natijasida agnonimlar — ya’ni adresat tomonidan tushunarsiz yoki noma’lum birliklar — ko‘p uchray boshladi. Bunday birliklar nutq jarayonida pragmatik presuppozitsiyaga tayanadi: so‘zlovchi adresat ushbu birlikni tushunadi deb hisoblaydi. Shu bilan birga, agnonimlarning ko‘payishi tilning lingvoekologik muvozanatini buzishi mumkin, chunki u nutqni murakkablashtiradi va kommunikativ samaradorlikni pasaytiradi. Tadqiqotning maqsadi — zamonaviy o‘zbek badiiy matnida agnonimlarning presuppozitsiyaviy va lingvoekologik xususiyatlarini aniqlash va ularning kommunikativ ta’sirini o‘rganishdir. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Agnonim tushunchasini ilmiy adabiyotlar asosida aniqlash;
2. Pragmalingvistik yondashuvda presuppozitsiyaning roli va ahamiyatini tahlil qilish;
3. Zamonaviy o‘zbek badiiy matnida agnonimlar misolida lingvoekologik xavf omillarini ko‘rsatish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Agnonimlarning lingvoekologik tadqiqi borasida Ma’rufjon Yo‘ldoshev, Zokirjon Isaqov va Shohqadam Haydarovning “Badiiy matnning lisoniy tahlili” asari muhim manba hisoblanadi. Ularning fikricha, agnonimlar atamasi yunon tilidan kelib chiqqan bo‘lib, “bilinmagan, tushunarsiz, noma’lum nom”[3] ma’nosini bildiradi. Agnonimlar muayyan tilda

so‘zlashuvchi uchun notanish yoki qisman tushunarli bo‘lgan birliklar sifatida aniqlanadi va ular lingvosentrik emas, antropotsentrik hodisa sifatida qaraladi. Ya’ni agnonim til birliklari foydalanuvchining lisoniy layoqati bilan bog‘liq bo‘ladi.[4]

Tilshunos olimlar ma’lum leksik-frazeologik birlikning agnonim sifatida qabul qilinishi uchun bir nechta mezonlarni belgilaydilar:

1. Butunlay tushunarsiz birliklar: so‘zlashuvchilar tomonidan deyarli anglanmaydigan so‘zlar (masalan, jo‘mish, olato‘g‘anoq).

2. Qisman tushunarli birliklar: eshitiladi, lekin to‘liq anglanmaydi (kvalifikatsiya, bakalavr, fauna, fayl, emissiya).

3. Soha bilan bog‘liq birliklar: til egasi so‘zni ma’lum soha bilan bog‘liq deb biladi, ammo aniq tushuntira olmaydi (gistologiya, sistalogiya, aksiologiya, falaj, esperanto, etnografiya).

4. Mavhum tushunilgan birliklar: so‘zning predmet ekanligini biladi, lekin tafsilotlarini aytib bera olmaydi (hantal, ang‘iz, tuvoq, koshin, kofein, eskort).

5. Umumiy tushunilgan birliklar: so‘zning eng umumiy ma’nosi ma’lum, ammo xususiy jihatlarini bilmaydi (sakura, sug‘ur, avakado).

Shuningdek, agnonimlar nutq jarayonida so‘zlovchi tomonidan ko‘p va o‘rinli ishlatilgan bo‘lsa ham, ularning to‘liq ma’nosi tushunilmasa, ular ham agnonim sifatida qabul qilinadi (ma’naviyat, aqida, g‘oya, qadriyat, hamiyat, mijoz).

Tilshunos M. Hakimov presuppozitsiyani matnning semantik implikaturasi sifatida qaraydi: u matnda ochiq ko‘rsatilmagan, ammo matn mazmuni va kontekst bilan bog‘liq bo‘lgan yashirin ma’noni bildiradi. Shuningdek, presuppozitsiya so‘zlovchining bilish fondi, oldindan kelishuvi va jumla tarkibidagi izohlanmagan birliklar orqali yuzaga chiqadi. Shu jihatdan u nutq ishtirokchilari o‘rtasida bilish va tushunishning umumiy bazasini ta’minlaydi.

Jahon tilshunosligida presuppozitsiya atamasi G. Frege tomonidan hukmning tabiiy va mantiqiy asosi sifatida birinchi bor aniqlangan bo‘lsa, P. Strosen va boshqa olimlar uning pragmatik aspektini, ya’ni nutq ishtirokchisi tomonidan yashirin axborotni anglashni ham tahlil qilgan. O‘zbek tilshunoslaridan A. Nurmonov presuppozitsiyani jumla tarkibidagi yashirin ma’no deb tushuntiradi va uning matndagi ifodalanishining kontekstual jihatlarini yoritadi.

Badiiy matnda presuppozitsiya muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Matyoqub Qo‘shjonov ta’kidlaganidek, kitoblarda qahramonlar va voqealar birinchi qarashda oddiy ko‘rinishi mumkin, ammo ularning mazmuni matnning tagida yashirin g‘oya sifatida aks ettiriladi. Shu bilan birga, presuppozitsiya matnning ichki va tashqi konteksti bilan bog‘liq bo‘lib, uning semantik va pragmatik funksiyasini ta’minlaydi.

Presuppozitsiya ikki jihatdan o‘rganiladi:

1. Matn kategoriyasi sifatida, ya’ni matn xossasining mavhum, yashirin ma’nosini aniqlash;

2. Nutq faoliyati jihatidan, ya’ni presuppozitsiya orqali nutq ishtirokchilari o‘zaro tushunishni ta’minlaydi.

Natijada, presuppozitsiya tilshunoslikda nafaqat yashirin ma’no, balki matnning strukturaviy-semantik xususiyati sifatida qabul qilinadi. U nutqdagi ma’lumotni ixcham shaklda etkazish, matn mazmunini boyitish va kommunikativ samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bois zamonaviy o‘zbek tilida presuppozitsiya tadqiqoti badiiy, publitsistik va ilmiy matnlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy matnda agnomik birliklar ba’zan kitobxon yoki qahramonlar uchun ma’nosi to‘liq tushunarsiz bo‘lgan so‘zlar sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, ular matnga turli funksiyalarni yuklaydi: qahramon nutqini individualizatsiyalash, pragmatik mazmunni oshirish va lingvoekologik jihatdan tilning foydalanuvchi kontekstiga bog‘liqligini ko‘rsatish.

Masalan, quyidagi parcha orqali “bankrot” so‘zining oqsoqol tomonidan tushunilmasligi natijasida komik effekt yuzaga keladi:

“Bir biznesmen yigit mahallada yashaydigan bir oqsoqolni uyiga chaqiribdi. Oldinlari uyi to‘la odam bo‘ladigan yigitga qarab, otaxon asta so‘rabdi:

–Ha, bolam, tinchlikmi?

–Tinchlik, otaxon, tinchlik. Shu kichkinagina bankrotcha bo‘lib qoldim. Shunga bir duo qilib yuboring, –debdi biznesmen.

Omin, iloyo bundan keyin katta-katta bankrot bo‘lib yurgin, –deb duo qilibdi otaxon!

Axir otaxon bankrotni qaydan ham bilsin!”[5]

Badiiy matnda bu kabi agnonimlar pragmatik presuppozitsiya vazifasini bajaradi: kitobxon yoki tinglovchi yashirin ma’no va kontekstual axborotni farqlay oladi, matn mazmunini to‘liq tushunadi. Shu tarzda agnonimlar qahramon nutqini boyitadi, matnga komik, illyustrativ va lingvoekologik qatlamlarni qo‘shadi. Lingvoekologik nuqtayi nazardan, matndagi yot yoki tushunarli bo‘lmagan so‘zlar til foydalanuvchisining madaniy va bilim kontekstini aks ettiradi, tilning milliy va zamonaviy muhitda qanday ishlashini ko‘rsatadi.

Abdulla Qahhorning “Adabiyot muallimi” asaridagi Boqijon Baqoyev qahramoni nutqida uchraydigan Detirding, Stending, Shelling, Mering, Damping kabi birliklar buni yaqqol namoyon qiladi.

“–Haligini aytmadingiz, Boqijon aka, - dedi qiz,

Chexov shunday demoqchi emasmi?

O‘rtoq Baqoyev yana bir piyola choy so‘radi.

Chexovmi? Hmm... burjuaziya realizmi to‘g‘risida so‘zlaganda eng avval uning obyektiga diqqat qilish kerak. Burjuaziya realistlari tushungan, ular aks ettirgan obyektiv voqelikni anglash lozim bo‘ladi. Turgan gapki, Chexovning ijodi boshdan oyoq, butun mohiyati bilan ilk burjuaziya realizmi, ya’ni... hmm... Mukarram, tovuqqa moyak qo‘ydingmi? Qo‘yish kerak, bo‘lmasa daydi bo‘lib ketadi..”

“Shundan keyin o‘rtoq Boqijon Baqoyev uzundan-uzoq so‘zlab ketdi. Uning nima to‘grida so‘zlayotganini Hamida bilmas edi. Detirding degan allaqanday mashhur tanqidchi Shelling degan yozuvchiga «sen dastyorga zor bo‘lguncha o‘gling dastyor bo‘ladi» deb xat

yozgan; Marks Dobrolyubovni Mering bilan bir qatarga qo'ygan; Stending degan allaqanday bir dramaturg o'lar chog'ida Demping degan bir tanqidchiga: «Agar butun jonivorlarni Xudo yaratgan bo'lsa, men uning zavqiga qoyil emasman, echkiemar ham jonivor bo'ldimi?» degan... Hamidaning boshi og'irlashib ketdi: ikki marta sekin, og'zini ochmasdan esnadi. Hamida mezbonlar bilan xayrlashib ko'chaga chiqqanda qorongi tushgan edi, «Uyqu istagi to'g'risida pochchasidan hech qanday fikr ololmadi. Uning so'zlaridan nima olgani haqida o'ziga hisob berar ekan, guvullab turgan boshida shundan boshga hech narsa yo'q edi: praktikum, minimum, maksimum; Detirding, Stending, Shelling, Mering, Demping...»[6]

Ushbu agnonimlar kitobxon uchun dastlab tushunarsiz bo'lishi mumkin, chunki ular qahramonning bilim va soha kontekstiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, ular pragmatik presuppozitsiya vazifasini bajaradi: matndagi yashirin ma'no yoki kontekstual axborot kitobxon tomonidan kontekstga e'tibor berilganda yuzaga chiqadi. Boqijon Baqoyev nutqidagi murakkab so'zlar uning dunyoqarashi, bilim doirasi va jamiyat bilan lingvoekologik bog'liqligini aks ettiradi. Shu tarzda agnonimlar qahramon nutqini individualizatsiya qiladi, matnga komik va estetik qatlamlar qo'shadi hamda tilning foydalanuvchi konteksti bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek tilidagi agnonimlar, ularning pragmatik presuppozitsiya va lingvoekologik xususiyatlari badiiy matnlar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, agnonimlar nafaqat til birligi sifatida, balki qahramon nutqini individuallashtirish, matnga komik va estetik qatlamlar qo'shish, hamda til foydalanuvchisining lingvoekologik kontekstini aks ettirishda muhim ahamiyatga ega.

Abdulla Qahhorning "Adabiyot muallimi" asaridagi Boqijon Baqoyev misoli orqali ko'rinib turibdiki, Detirding, Stending, Shelling, Mering, Demping kabi agnonim birliklar qahramonning nutqini murakkablashtiradi va kitobxon uchun dastlab tushunarsiz bo'ladi. Shu bilan birga, ularning ishlatilishi pragmatik presuppozitsiya vazifasini bajaradi: kitobxon kontekstga e'tibor berganda yashirin ma'no ochiladi, qahramonning dunyoqarashi, bilim doirasi va jamiyat bilan lingvoekologik bog'liqligi anglanadi.

Boqijon Baqoyev misoli shuni ko'rsatadiki, murakkab agnonim birliklar nutqda individualizatsiya va mavhum bilimlarni ifodalash vositasi sifatida ishlatiladi. Shu jumladan, bankrot so'zining oqsoqol tomonidan noto'g'ri tushunilishi natijasida yuzaga kelgan komik effekt ham agnonimlarning pragmatik rolini yaqqol namoyon qiladi. Bu holat tilning ekologik jihatdan foydalanuvchi doirasiga bog'liqligini ko'rsatadi: tildan foydalanish shaxsning ijtimoiy, madaniy va bilim kontekstiga muvofiq yuz beradi.

Bundan tashqari, badiiy matnlarda agnonimlar agnomaziya hodisasi orqali qahramon nutqini estetik va ilustrativ maqsadlarda boyitadi. Masalan, qahramon so'zlari kitobxon tomonidan to'liq anglanmasa ham, uning faoliyati, dunyoqarashi yoki mavhum bilimlari haqida tushuncha hosil bo'ladi. Shu tarzda, agnonimlar lingvoekologik jihatdan tilning turli sohalarda ishlatilish xususiyatini va nutqiy muloqotda kontekstga bog'liqligini aks ettiradi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, agnonimlar badiiy matnda quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

1. Qahramon nutqini individuallashtirish va uning ijtimoiy-hayotiy mavqeini aks ettirish;
2. Pragmatik presuppozitsiya orqali matnga yashirin ma’no va axborot qatlamini kiritish;
3. Lingvoekologik vazifani bajarish — til foydalanuvchisining bilim, madaniy va ijtimoiy kontekstini ko‘rsatish;
4. Komik va estetik effekt yaratish, matnni boyitish;
5. O‘quvchining tushunish jarayonida interpretativ faoliyatni rag‘batlantirish.

Shu bilan birga, natijalar badiiy matnlarda agnonimlar so‘zning leksik ma’nosidan tashqari, uning kontekstual, pragmatik va lingvoekologik qatlamlarini ham anglashda muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat presuppozitsiyaning nutq va matn tahlilidagi markaziy rolini tasdiqlaydi va lingvistik tadqiqotlarda badiiy matnlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

XULOSA.

Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek tilidagi agnonimlar, ularning pragmatik presuppozitsiya va lingvoekologik xususiyatlari badiiy matnlar misolida o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, agnonimlar tilning leksik qatlamidan tashqari, nutq va matnning pragmatik va lingvoekologik aspektlarida ham muhim rol o‘ynaydi.

Badiiy matnda agnonimlar qahramon nutqini individuallashtirish, uning ijtimoiy mavqeini va dunyoqarashini aks ettirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, presuppozitsiya orqali matndagi yashirin ma’no qatlamlari ochiladi, tinglovchi yoki o‘quvchi nutqdagi yashirin axborotni idrok etadi va matn mazmunini yanada to‘liq anglay oladi. Misollar, jumladan Abdulla Qahhor va boshqa adabiy asarlardan olingan parchalarda, qahramonlarning ishlatgan agnonimlari ularning nutqini murakkablashtirib, badiiy matnning estetik va kommunikativ vazifalarini bajaradi.

Lingvoekologik nuqtai nazardan, agnonimlar til foydalanuvchisining bilim, muloqot doirasi va madaniy kontekst bilan bog‘liqligini aks ettiradi. Shu tarzda, agnonimlarning badiiy matnda qo‘llanilishi tilning boyligini va murakkabligini oshiradi, kitobxonning interpretativ faoliyatini rag‘batlantiradi hamda tilning ijtimoiy va madaniy funksiyalarini mustahkamlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot agnonimlar mavzusini tilshunoslik, pragmatika va lingvoekologiya nuqtai nazaridan o‘rganish nafaqat tilning ilmiy tahlilini chuqurlashtiradi, balki badiiy matnlarni anglash va tilning boyligini saqlashda amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy o‘zbek tilida agnonimlar va ularning pragmatik hamda lingvoekologik xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslik va badiiy adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy imkoniyatlar yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Морковкин А. В. Русские агнонимы: теоретическое и прикладное рассмотрение : автореф. дис. ... канд. филол. наук / А. В. Морковкин ;. – М.: Рос. акад. наук, Ин-т русского языка, 1993. – 19 с.
2. Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari [Matn]: darslik. –Farg‘ona: Klassik, 2020. – 420 b.
3. Yo‘ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. 111 b.
4. Морковкин В. В, Морковкина А. В. Русские агнонимы: понятие, состав и мысловое разнообразие. М.:. 1997.
5. Жураев А. Танимадинг-а?! –Тошкент: Шарк, 2005. Б.99
6. Abdulla Q. Adabiyot muallimi. –Toshkent: Ziyonashr, 2019. 129 b.